

## VII. ISTE'MOL BOZORI



2022 yilning yanvar-iyunida chakana savdo tovar aylanmasi 5 026,3 mlrd. soʻmni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 115,1 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 868,0 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 17,3 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 109,8 foizni tashkil etib, 4 158,3 mlrd. soʻmga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 82,7 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 2 476,9 mlrd. soʻm yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga toʻgʻri keldi va oʻsish surʻati 2021 yilning shu davriga nisbatan 109,3 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 49,2 foizga teng boʻldi.



### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da (2022 yil yanvar-iyun)



2022 yilning yanvar-iyunida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari boʻyicha quyidagicha ifodalanadi.


Davlat mulki 5 026,1 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan 2021 yilning shu davriga nisbatan 99,9 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,1 foizni tashkil qildi.

Nodavlat mulki 231,1 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan 2021 yilning shu davriga nisbatan 95,5 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,5 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga toʻgʻri keldi va 26,4 foizni tashkil etdi, Zomin tumani 13,1 foizni, Sharof Rashidov tumani 14,8 foizni tashkil etgan boʻlsa, Yangiobod tumani 0,9 foiz, Zafarobod tumani 1,4 foiz va Arnasoy tumani 1,8 foiz ulush bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.



Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2022 yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm	2021 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida	Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida
<b>Jami</b>	<b>5 026,3</b>	<b>115,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	868,0	149,8	17,3
kichik tadbirkorlik	1 681,4	110,6	33,5
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	1 603,0	106,1	31,9
Uyushmagan savdo	873,9	115,5	17,4




**2022 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning  
chakana tovar aylanmasi**  
(umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd. so‘m	2021 yil yanvar- iyuniga nisbatan foiz hisobida	ming so‘m	2021 yil yanvar- iyuniga nisbatan foiz hisobida
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>5 026,3</b>	<b>115,1</b>	<b>3 465,0</b>	<b>112,5</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 329,0	110,9	7 065,3	107,0
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	90,9	105,8	1 915,1	104,0
Baxmal	1 006,0	145,9	6 137,9	142,6
G‘allaorol	336,4	109,2	1 870,2	106,8
Sharof Rashidov	744,8	107,5	3 209,0	105,5
Do‘stlik	141,8	109,7	2 088,8	108,0
Zomin	658,8	109,4	3 825,8	106,7
Zarbdor	161,1	108,8	1 772,1	106,1
Zafarobod	71,6	109,8	1 382,3	107,7
Mirzacho‘l	117,5	110,5	2 188,2	108,6
Paxtakor	171,1	110,1	2 192,2	107,4
Forish	152,7	106,4	1 596,0	104,6
Yangiobod	44,6	107,9	1 533,5	106,4

Viloyatda chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘sish surati yuqori hududlar Baxmal (142,6 %), Mirzacho‘l (108,6 %) va Do‘stlik (108,0 %) tumanlariga to‘g‘ri keladigan.




**2022 yil yanvar-iyun oylarida, chakana savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlari**  
(ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, % da)



Viloyatning aksariyat hududlarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Jizzax shahri (110,9 %), Baxmal tumani (145,9 %), Paxtakor tumanida (110,1 %), Zomin tumanida (109,4 %), Yangiobod tumanida (107,9 %), Sharof Rashidov tumani (107,5 %), nisbatan yuqori bo‘lmagan o‘shish sur‘atlari Arnasoy tumanida (105,8 %) va Forish tumanida (106,4 %) kuzatildi.




**2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da**



Hududlar bo'yicha olib qaralganda, kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hududlar Jizzax shahri (1 209,7 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (742,8 mlrd. soʻm), Zomin (606,2 mlrd. soʻm), G'allaorol (324,9 mlrd. soʻm) va Baxmal (337,3 mlrd. soʻm) tumanlari hisoblanadi.



**Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi mlrd. soʻm, o'sish sur'ati, % da (2022 yil yanvar-iyun)**




Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (48,8 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (18,3 mlrd. so'm), Zomin (7,3mlrd so'm) hamda G'allaorol (6,1 mlrd. so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (1,4 mlrd. so'm), Arnasoy (0,6 mlrd. so'm) va Zafarobod (1,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



### Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi

(mln. so'm) (2022 yil yanvar-iyun)



### 2022 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning ulgurji tovar aylanmasi

2022 yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo aylanmasi 1 139,4 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 105,1 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi 253,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,9 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 111,3 foizni tashkil etib, 866,3 mlrd. so'mga yetdi hamda umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 77,8 foizni tashkil qildi.




**Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi**  
(2022 yilning yanvar-iyun)

	<i>Hajmi, (mlrd. so‘m)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2021 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 139,3</b>	<b>100,0</b>	<b>105,1</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	568,1	49,9	93,8
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2,9	0,3	160,3
Baxmal	120,2	10,4	127,4
G‘allaorol	38,5	3,4	136,5
Sharof Rashidov	75,9	6,7	128,1
Do‘stlik	100,4	8,8	92,4
Zomin	98,6	8,7	97,9
Zarbdor	15,7	1,4	117,6
Zafarobod	8,3	0,7	114,4
Mirzacho‘l	3,7	0,3	140,6
Paxtakor	50,5	4,4	510,9
Forish	48,7	4,3	101,5
Yangiobod	7,8	0,7	156,4

Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surati yuqori bo‘lgan Arnasoy (160,3 %), Yangiobod (156,4 %) va Paxtakor (510,9 %) tumanlariga to‘g‘i keladi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



- Mirzacho'l
- G'allaorol
- Yangiobod
- Zomin
- Baxmal
- Zarbdor
- Do'stlik
- Forish
- Paxtakor
- Zafarobod
- Arnasoy
- Sharof Rashidov
- Jizzax shahri

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan 105,1 foizni tashkil etdi, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 111,3 foizni, hajmi esa 886,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (49,9 %) hisoblanadi. Shuningdek, Sharof Rashidov (6,7 %) va Zomin (8,7 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Yangiobod (0,7 %), Arnasoy (0,3 %), Mirzacho'l (0,3 %) hamda Zafarobod (0,7 %) tumanlari esa eng past ulushga ega.

Shundan yuqori xajimlarga ega bo'lgan Jizzax shahrida 568,1 mlrd. so'mni, qolganlari Baxmal 120,1 mlrd. so'mni, Zomin 98,6 mlrd. so'mni, Do'stlik 100,4 mlrd. so'mni hamda Sharof Rashidov 75,8 mlrd. so'mni tumanlarida tashkil qilgan.